



2022- yilning yanvar-iyun oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar


2022- yilning yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmini o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 123,2 % ni tashkil etdi.

123,2 %

4175,9
mlrd. so'm


Jami investitsiyalar hajmida, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 76,4 %, yoki 3190,1 mlrd. so'mni va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davridagi hajmiga nisbatan 122,2 % tashkil etdi.

Mos ravishda, markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalarning ulushi 23,6 %, yoki 985,8 mlrd. so'mni va o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 126,5 % tashkil etdi.



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, % da



O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da

Markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan investitsiyalar tarkibi, % da




O'tgan yilning mos davriga nisbatan % da

2022- yilning yanvar-iyun oylarida korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirilgan asosiy kapitalga investitsiyalar – 1285,4 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 30,8 % ini tashkil etdi. Aholi mablag'lari hisobidan jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 15,1 % i yoki 628,3 mlrd. so'mi o'zlashtirildi.

Jami xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 1363,1 mlrd. so'mni tashkil etdi. O'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 131,4 % va shuningdek jami hajmdagi ulushi 32,6 % ni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarni moliyalashtirish manbalari



Shuningdek, Tijorat banklar kreditlari va boshqa qarz mablag'lari hisobidan 322,8 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 7,7 % ini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 27,5 foizli punktga ko'paydi), O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar 409,5 mlrd. so'm (9,8 % va 49,2 foizli punktga oshdi), Xorijiy investitsiyalar 340,2 mlrd. so'm (8,1 % va 6,5 martaga oshdi), Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar 613,4 mlrd. so'm (14,7 % va 11,0 foizli punktga kamaydi), Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi 90,8 mlrd. so'm (2,2 % va 18,9 foizli punktga kamaydi), Respublika byudjeti 439,4 mlrd. so'm (10,5 % va 17,8 foizli punktga oshdi), Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi 46,1 mlrd. so'm (o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 2,4 martaga oshdi) miqdorida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirildi.

Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlarini moliyalashtirish manbalari bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi hisobidan moliyalashtirilgan ivesititsiyalar bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,4 martaga oshdi.

Respublikaning barcha tumanlarida aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash ishlari va gaz ta'minoti loyihalarining bajarilishi, va shuningdek temir yo'l yo'lovchi transporti va yuk transportini yanada takomillashtirish ishlari bo'yicha loyihalar investitsion faollik bilan izohlash mumkin.

Shuningdek, yuqori o'sish sur'ati ko'rsatkichi O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi xorijiy kreditlar hisobidan kuzatilib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 149,2 % ni tashkil qildi.

***Moliyalashtirish manbalari bo'yicha tumanlar kesimida
asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar:***

| | <i>Jami asosiy kapitalga investitsiyalar, mldr. so'm</i> | <i>shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha:</i> | | |
|--|--|---|--|--------------------------------------|
| | | <i>Respublika byudjeti</i> | <i>Korxona va tashkilotlarning o'z mablag'lari</i> | <i>Aholining o'z mablag'lari</i> |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 4175,9 | 439,4 | 1 285,4 | 628,3 |
| Nukus sh. | 989,2 | 163,6 | 586,3 | 48,8 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | |
| Amudaryo | 248,6 | 30,9 | 31,7 | 68,6 |
| Beruniy | 266,6 | 67,1 | 39,1 | 96,5 |
| Bo'zatov | 44,3 | 15,3 | 6,8 | 6,7 |
| Qorao'zak | 509,6 | 12,8 | 34,5 | 16,0 |
| Kegeyli | 72,7 | 10,4 | 16,5 | 16,4 |
| Qo'ng'irot | 530,9 | 11,6 | 130,2 | 25,6 |
| Qonliko'l | 86,6 | 5,6 | 47,7 | 19,1 |
| Mo'ynoq | 519,7 | 17,2 | 187,0 | 12,5 |
| Nukus | 111,0 | 17,9 | 25,4 | 49,7 |
| Taxiatosh | 99,9 | 13,3 | 44,6 | 18,2 |
| Taxtako'pir | 37,8 | 4,7 | 7,2 | 13,0 |
| To'rtko'l | 253,2 | 13,4 | 59,1 | 95,2 |
| Xo'jayli | 103,0 | 9,4 | 25,4 | 29,6 |
| Chimboy | 118,1 | 19,7 | 22,9 | 47,2 |
| Shumanay | 38,9 | 8,4 | 4,9 | 15,1 |
| Ellikqa'a | 145,8 | 18,1 | 16,1 | 50,1 |




QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

| | <i>shu jumladan, moliyalashtirish manbalari bo'yicha:</i> | | | |
|--------------------------------------|---|---|-------------------------------------|---|
| | Xorijiy investitsiya va kreditlar | Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi | Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi | Bank kreditlari va boshqa tashkilotlarning qarz mablag'lari |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 1 363,1 | 46,1 | 90,8 | 322,8 |
| Nukus sh. | 118,9 | 3,7 | - | 67,9 |
| tumanlar: | | | | |
| Amudaryo | 3,9 | 2,8 | 89,7 | 21,0 |
| Beruniy | 41,3 | 0,4 | - | 22,2 |
| Bo'zatov | 2,1 | 2,3 | - | 11,1 |
| Qorao'zak | 439,0 | 3,3 | - | 4,0 |
| Kegeyli | 15,8 | 1,2 | - | 12,4 |
| Qo'ng'irot | 319,1 | 2,3 | - | 42,1 |
| Qonliko'l | 1,3 | 1,6 | - | 11,3 |
| Mo'ynoq | 292,1 | 1,1 | - | 9,8 |
| Nukus | 3,9 | 1,6 | - | 12,5 |
| Taxiatosh | 8,9 | 1,5 | - | 13,4 |
| Taxtako'pir | 3,1 | 3,8 | - | 6,0 |
| To'rtko'l | 56,6 | 6,8 | - | 22,1 |
| Xo'jayli | 10,9 | 1,1 | - | 26,6 |
| Chimboy | 11,3 | 3,6 | 0,5 | 12,9 |
| Shumanay | 1,3 | 3,8 | - | 5,4 |
| Ellikqala | 33,6 | 5,2 | 0,6 | 22,1 |

**2022- yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida
asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar**







To'rko'l tumani

*o'sish sur'ati, Investitsiyalar hajmi,
% da mlrd. so'm*




*o'sish sur'ati, Investitsiyalar hajmi,
% da*



mlrd. so'm

*Respublikadagi
ulushi, % da*



Xo'jayli tumani




*o'sish sur'ati, Investitsiyalar hajmi,
% da*



mlrd. so'm



*Respublikadagi
ulushi, % da*



Chimboy tumani



*o'sish sur'ati, Investitsiyalar hajmi,
% da*



mlrd. so'm



*Respublikadagi
ulushi, % da*



Shumanay tumani




*o'sish sur'ati, Investitsiyalar hajmi,
% da*



mlrd. so'm



*Respublikadagi
ulushi, % da*



Ellikqala tumani



*o'sish sur'ati, Investitsiyalar hajmi,
% da*



mlrd. so'm




*Respublikadagi
ulushi, % da*

Tumanlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalar o'zlashtirilishi bo'yicha o'tgan yilning mos davriga nisbatan eng yuqori o'sish sur'ati 510,0 % ga o'sib, Qorao'zak tumanida kuzatildi. Bu sement ishlab chiqarishni kengaytirishning 3-bosqichiga o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan bog'liq.

Shuningdek, Qo'ng'irot tumanida ham yuqori o'sish sur'ati kuzatilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 161,6 % ni tashkil qildi. Qo'ng'irot tumanidan o'tiuvchi xalqaro ahamiyatdagi A380 yo'lining qurilishiga o'zlashtirilgan investitsiyalar bilan izohlash mumkin.

2022- yil yanvar-iyun oylarida
asosiy kapitalga o'zlashtirilgan
investitsiyalarning o'sish sur'atlari,
% da



***Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan
investitsiyalarning texnologik tarkibi, % da***





QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning texnologik tarkibida qurilish montaj ishlari bo'yicha 2410,2 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, jami investitsiyalarning 49,9 % ini tashkil etdi, mashina, uskuna va inventarlarga 1498,4 mlrd. so'm (jami investitsiyalardagi ulushi 43,0 %) va boshqa harajatlarga 267,3 mlrd. so'm (7,1 %) o'zlashtirildi.

Tumanlar kesimida jami asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmida qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'satkich Qo'ng'iroq tumanida kuzatildi – 85,3 % yoki 452,8 mlrd. so'm, va ushbu tumanda mashina, uskunalar va inventarlarga xarajatlar bo'yicha eng quyi daraja – 11,3 % yoki 60,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Qurilish-montaj ishlarining ulushi bo'yicha eng quyi daraja Qorao'zak tumanida kuzatilib, 27,2 % ni yoki 139,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibi

**Yangi qurilish-
35,8 %**

**Kengaytirish,
rekonstruksiya,
modernizatsiya - 40,1 %**


**Boshqa yo'nalishlar-
24,1 %**

Joriy hisobot davrida asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning katta qismi iqtisodiyotda mavjud obyektlarni kengaytirish, rekonstruksiya qilish, modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga yo'naltirildi. Va hajmi 1676,7 mlrd. so'm va jami hajmdan ulushi 40,1 % tashkil etdi.

Yangi qurilishga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 1493,3 mlrd. so'm va jami hajmdan ulushi 35,8 % tashkil etdi.

Boshqa yo'nalishlarga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 1005,9 mlrd. so'mni tashkil etib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 24,1 %ini tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar, yakunga nisbatan % da



Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya va kreditlar

| | Jami | Shu jumladan: | | | <i>mldr. so'm</i> |
|--------------------------------------|----------------|--|--|-----------------------------------|-------------------|
| | | To'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyalar | O'z.R. kafolati ostida xorijiy kreditlar | Kafolatlanmagan xorijiy kreditlar | |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 1 363,1 | 340,2 | 409,5 | 613,4 | |
| Nukus sh. | 118,9 | 18,8 | 79,0 | 21,1 | |
| tumanlar: | | - | | - | |
| <i>Amudaryo</i> | 3,9 | - | 2,0 | 1,9 | |
| <i>Beruniy</i> | 41,3 | - | 24,7 | 16,6 | |
| <i>Bo'zatov</i> | 2,1 | - | 2,1 | - | |
| <i>Qorao'zak</i> | 439,0 | 203,2 | 1,1 | 234,7 | |
| <i>Kegeyli</i> | 15,8 | 12,4 | 1,0 | 2,4 | |
| <i>Qo'ng'irot</i> | 319,1 | 82,6 | 234,9 | 1,6 | |
| <i>Qonliko'l</i> | 1,3 | 0,9 | 0,3 | 0,1 | |
| <i>Mo'ynoq</i> | 292,1 | 14,7 | - | 277,4 | |
| <i>Nukus</i> | 3,9 | - | 1,6 | 2,3 | |
| <i>Taxiatosh</i> | 8,9 | - | 1,2 | 7,7 | |
| <i>Taxtako'pir</i> | 3,1 | - | 1,1 | 2,0 | |
| <i>To'rtko'l</i> | 56,6 | 1,9 | 30,7 | 24,0 | |
| <i>Xo'jayli</i> | 10,9 | - | 0,2 | 10,7 | |
| <i>Chimboy</i> | 11,3 | 5,7 | 0,2 | 5,4 | |
| <i>Shumanay</i> | 1,3 | - | 1,3 | - | |
| <i>Ellikqal'a</i> | 33,6 | - | 28,1 | 5,5 | |

Asosiy kapitalga xorijiy investitsiya va kreditlar hisobidan joriy davrda 1363,1 mlrd. so'm o'zlashtirilgan bo'lib, jami o'zlashtirilgan investitsiyalarning 32,6 % ini tashkil etdi.

Xorijiy investitsiyalar hisobidan o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 340,2 mlrd. so'mni tashkil etib, xorijiy kreditlar hisobidan bo'lsa 1022,9 mlrd. so'mni o'zlashtirildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xorijiy investitsiya va kreditlar tarkibi, % da

8,7 %



Qishloq xo'jaligi

27,7 %



Tog'-kon sanoati

34,6 %



Qayta ishlash sanoati

18,8 %



Tashish va saqlash

5,0 %



Elektr energiyasi, gaz, bug' bilan ta'minlash

1,4 %



Axborot va aloqa

3,8 %

Boshqalar

Investitsiyalar va qurilish statistikasini bo'limi

Aloqa telefoni: (61) 224-92-14
222-75-91